

Ўзбекистане театральное искусство выступает не только как «зеркало общественных преобразований», но и, благодаря целенаправленной политике Президента и

творческой инициативе, становится активным участником мирового культурного диалога, что служит духовному и профессиональному росту деятелей искусства.

Литература

1. Указ Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по совершенствованию деятельности Министерства культуры Республики Узбекистан» (26 мая 2020 г., № УП-6000).
2. Постановление Президента Республики Узбекистан №ПФ-6079 от 26 октября 2020 года «О мерах по дальнейшему развитию театрального искусства»
3. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» (28 января 2022 г.).

REZYUME. Tezisdá madaniyat va san'atni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan "Yangi O'zbekiston" sharoitida teatr san'atining yangi imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Davlat tomonidan teatrlarni qo'llab-quvvatlash, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va gastrol faoliyatini faollashtirishga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston davlat musiqali komediya (operetta) teatri misolida so'nggi yillarda mamlakatimiz teatr jamoalari tashqi va ichki gastrollarni muvaffaqiyatli amalga oshirayotgani, bu bilan madaniy almashinuvga, O'zbekistonning zamonaviy san'at va ma'naviyat markazi sifatidagi xalqaro imijini mustahkamlashga hissa qo'shayotgani ko'rsatilgan.

РЕЗЮМЕ. В тезисе рассматриваются новые возможности театрального искусства в условиях «Нового Узбекистана», где развитие культуры и искусства возведено на уровень государственной политики. Особое внимание уделено государственной поддержке театров, расширению международного сотрудничества и активизации гастрольной деятельности. На примере Государственного театра музыкальной комедии (оперетты) Узбекистана показано, как за последние годы театральные коллективы страны успешно реализуют внешние и внутренние гастроли, тем самым способствуя культурному обмену и укреплению международного имиджа Узбекистана как современного центра искусства и духовности.

SUMMARY. This thesis explores the new opportunities for theatrical art in the context of "New Uzbekistan," where the development of culture and art has been elevated to the level of state policy. Particular attention is given to the governmental support of theaters, the expansion of international cooperation, and the intensification of touring activities. Using the example of the State Musical Comedy Theater (Operetta), the paper illustrates how, in recent years, theater troupes across the country have successfully carried out numerous domestic and international tours, thereby promoting cultural exchange and strengthening Uzbekistan's international image as a modern center of art and spirituality.

ESTRADA SAN'ATINING SO'Z, MUSIQA VA IJRO UYG'UNLIGIDA HAMKORLIK MASALALARI (SHOIR, BASTAKOR VA XONANDALAR MISOLIDA)

Saydaliyev Yusufxon Aslanovich – dotsent
O'zbekiston davlat konservatoriyasi

Tayanch so'zlar: estrada san'ati, so'z va musiqa uyg'unligi, ijro, shoir, bastakor, xonanda, badiiy hamkorlik, interpretatsiya, kompozitsion yaxlitlik.

Ключевые слова: эстрадное искусство, взаимодействие слова и музыки, исполнение, поэт, композитор, певец, художественное сотрудничество, интерпретация, композиционная целостность.

Key words: estrada art, word music interaction, performance, poet, composer, singer, artistic collaboration, interpretation, compositional integrity.

KIRISH. Qo'shiq inson qalbining tarjimoni sifatida uzoq yillar davomida ardoqlanib kelgan va kelinmoqda. Chunki, haqiqiy qo'shiqlarda insoniyatning orzu-umidlarini, or-nomusi, mehr-muhabbati, kelajakka bo'lgan ishonchi so'z va ohanglar orqali ifoda etilgan. Yer yuzidagi barcha

xalqlar hayotini qo'shiqsiz tasavvur eta olmaydi. Chunki zukko xalqning qalb to'ridan chiqqan tafakkur durdonalari uzoq tarixiy jarayoni davomida xalqning ma'naviyatini shakllantirgan. Shu bois xalqning turmush tarzi qo'shiqlarda ifodalangan. Estrada xonandaligida so'z va ohang

bir qolipda uyg'unlashgan bo'ladi. Qo'shiqlarning so'zi va ohangi bir-biriga shunchalik uyg'unlashib, ularni bir-birisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Hazrat Alisher Navoiyning "Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulruh kelmadi" g'azalini qo'shiq tarzida eshitish tinglovchiga yanada zavq bag'ishlaydi. Yohud sozandalar ansambli ijrosida "Munojot" kuyini tinglaganda albatta uning she'riy matni xayoldan o'taveradi. Bunday xollarni boshqa qo'shiqlarda ham ko'rish mumkin. So'z va ohangni uyg'unlanishini va ajralmas holga kelishiga sababi, har bir adabiy matn o'ziga xos ritm, o'lhovga o'ziga xos badiiy xususiyatlarga ega. Aynan musiqada ham xuddi shu xususiyatlar o'z ifodasini topganligini kuzatish mumkin. Shuni alohida ta'kidlash joizki, adabiy musiqiy matn qachonlardir, bir kishi tomonidan yaratilganligi ham bizga tarixdan ma'lum. Bunga bir qator xalq qo'shiqlari, shoirlarning o'z she'rlariga musiqa bastalaganlari misol bo'la olishi mumkin. Z.M. Boburning "Boburnoma" asarida ulug' mutafakkir shoir A.Navoiy ham bastakor, ham mohir sozanda bo'lib, ba'zan g'azallariga o'zi musiqa bastalaganligi haqida yozib qoldirganlar. Bunga "Feruz 1 va 2" va boshqalar misol bo'la olishi mumkin. "Feruz-1" keyinchalik Ogahiy g'azali bilan aytilgan. Demak, avval musiqa keyin adabiy matn paydo bo'lishi ham tabiiy hol hisoblanib, bundan mohirona foydalanish ijodkorning ijro mahoratiga bog'liq.

Bastakor qo'shiqqa kuy bastalashga kirishishdan oldin she'r tanlaydi va adabiy matnning mazmuni ruhiy kayfiyatiga alohida e'tibor beradi bu esa bastalayotgan ohangi ijrosini shakli-shamoyilini namoyon etishga imkoniyat yaratiladi. Bastakor o'z oldiga qo'ygan vazifani qay darajada uddalay olishiga esa qo'shiq mavqeining ohangdorligiga bog'liq. Demak musiqa oldin yaratilganda ham, she'r tanlanganda ham adabiy matn bilan ohangning mohiyatini mos kelib, o'zaro uyg'unlashgandagina qo'shiq ijrosi mukammal bo'lishi mumkin. Shuni aytish joizki, so'z va ohang birligi teng huquqlidir. Bularni hech qaysi biri bir-biridan ustun emas. Bular uyg'unlashgandagina bir-birini boyitishga sabab bo'ladi. So'z va ohang birligidan yaxshi asarlar paydo bo'lib iqtidorli ijrochilar tomonidan kuylangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Hozirgi kunda "estrada" nomi bilan yuritilayotgan musiqa namunalari tobora ko'plab tinglovchilar e'tiborini o'ziga jalb etmoqda. Bugungi kunda radio – televideniye va turli

bayram tantanalari dasturlaridan keng o'rin olgan bu turdagi musiqa nafaqat yoshlarni, balki jamiyatimizning turli yoshdagi milionlab vakillari ongi va ma'naviyatiga sezilarli ta'sir o'tkaza boshladi. AQSH musiqasi avvallari bu sohaga qariyib "muxolifat" darajasida bo'lgan kompozitorlik ijodiyotiga sezilarli ta'sir o'tkazib kelmoqda.

Amerika musiqa madaniyatida estrada qo'shiqchiligining yuzaga kelishi, uning ma'lum unsurlari va shakllarining jahon xalqlari musiqa madaniyatiga eksport qilinganligini turli manbalar orqali to'la asoslash mumkin. Ma'lumki, Amerika Qo'shma Shtatlari musiqa madaniyati XVII asr oxirlarida o'ziga xos mustamlaka mamlakatning musiqasi tipida shakllana boshlagan. O'sha davrdagi Amerika musiqasi Yevropa, Afrika, keyinchalik Osiyo qit'alaridan "ko'chirilgan" musiqa an'analarining o'zaro ta'siri va transformatsiyasini boshidan kechirib, yangi shart – sharoitlarga moslashtiriladi. XX asrda ham Amerika Qo'shma Shtatlari musiqa madaniyati boshqa qit'a xalqlari san'atiga kuchli ta'sir o'tkaza boshlaydi.

XX asr o'zbek musiqa san'atida ham keskin yangilanishlar davri bo'ldi deyish mumkin. "Noan'anaviy" kompozitorlik ijodiyoti hamda yangi konsert shakllari yuzaga keldi. Shu munosabat bilan musiqiy madaniyatga ham "estrada" muomalimizga kirib keldi. O'zbek estrada qo'shiqchiligining shakllanish jarayoniga ham kompozitorlik ijodi sezilarli hissa qo'shdi. Shu jumladan o'zbek estrada qo'shiqchiligining poydevori M.Burxonov, I.Akbarov, M.Leviyev, D.Zokirov, A.Berlin, E.Solihov, G'.Qodirov, A.Muhammedov kabi kompozitorlarning ommaviy qo'shiqchilik sohasidagi ijodkorona mehnatlari tufayli barpo etildi. Ularning samimiy, ohanrabodek maftunkor kuy ohanglari ayni paytda estrada qo'shiqchiligi uchun milliy qiyofaga ega sermazmun lirikadan foydalanish usullarini ham kashf etib bordi. Bundan tashqari kompozitorlarimiz xalq qo'shiqlarini musiqiy estrada uslubida qayta ishlash amaliyotini hamda badiiy an'analar asosida milliy estrada qo'shiqlarini etish mumkinligi tajribasini ham boshlab berdi. Ushbu ijodiy jarayonlar natijasida ma'lum badiiy ko'rsatgichlarga ham erishildi. Bu sohaning bosh irmog'ida turgan iste'dodli xonandalar jumladan, B.Zokirov, L.Zokirova, K.Jalilova, B.Mavlonov, N.Zokirov, R.Sharipova, Y.To'rayevlar ijro dasturida o'zbek kompozitorlari yaratgan qo'shiqlar mustahkam o'rin oladi. Ijodiy hamkorlik natijasida yaratilgan qo'shiqlar teleradio dasturlari, kino va sahnaviy asarlar, hamda konsertlar orqali ommalashdi,

saralandi va haqiqiy “shlyager” namunalariga aylandi. 1920-1940 yillarda o‘zbek estrada san’ati xalq an’analariga tayangan bo‘lsa, 1950 – 1960 yillarga kelib bu sohada zamonaviy yo‘nalishda izlanishlar olib borildi. Bu jarayon bevosita Botir Zokirov faoliyati bilan bog‘liq bo‘ldi [1].

1950 – yillarning ikkinchi yarmiga kelib, sobiq ittifoqda yuz bergan xalqaro munosabatlar bilan bog‘liq siyosiy o‘zgarishlar O‘zbekistonda estrada musiqasining yangi shakllari rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Jumladan, 1957 yilda Moskvada o‘tkaziladigan VI yoshlar va talabalar jahon festivalida ishtirok etish maqsadida “Yoshlik” estrada ansambli Toshkentda tashkil etiladi. Mazkur jamoa ijro dasturiga A.Ginzburg rejissyorlik qiladi[2]. Repertuardan o‘rin olgan qo‘shiqlarni esa Botir Zokirov va Luiza Zokirovalar, K.Jalilova, B.Mavlonov hamda R.Qurbonovlar ijro qildilar. 1958 yili Toshkentda o‘tkazilgan Osiyo va Afrika mamlakatlarining yozuvchilari xalqaro konferensiyasi ishtirokchilari uchun O‘zbekiston davlat estrada orkestrining “Bandung ruhi” nomli ilk konsert dasturi namoyish etiladi [3]. 1959-yilda Moskvada o‘tkazilgan O‘zbekiston madaniyati va san’ati dekadasi doirasidagi tadbirlarda “Salom, Moskva” deb nomlangan konsert dasturi ijro etiladi. Dasturni tayyorlash jarayonida rejissyorlar A.Ikonnikov va A.Qobulov, musiqa rahbari SH.Ramazanov, direjyor A.Dvoskinlar faol ishtirok etishadi. Shuningdek, ushbu dasturdan o‘rin olgan musiqiy chiqishlarga K.Jalilova, B.Mavlonov, B.Zokirov va L.Zokirova, doirachi A.Yo‘ldoshev hamda I.Oqilov va M.Gerdrt rahbarligidagi raqqosalar guruhi jalb qilinadi[4].

NATIJAR VA MUHOKAMA

Yangi estrada jamoasining tashkil etilishi tarixiy voqeaga aylanadi va o‘sha kezlarda “Toshkent haqiqati” va boshqa gazetalarda yangi tashkil etilgan guruh haqida maqolalar chop etiladi.

Ta’kidlash joizki, qayd etilgan yillarda o‘zbek estrada musiqasi, asosan, uch yo‘nalishda rivojlanadi. Bulardan birinchisi – maxsus ansambl va orkestrlarning kinoteatrlardagi chiqishlari bo‘lsa, ikkinchisi raqs uchun tayyorlangan maydonchalarda, uchinchisi esa istirohat bog‘laridagi maydonchalarda kechadi. Birinchi vaziyatda ijrochi jamoalar dasturida, asosan, estrada qo‘shiqlariga urg‘u berilgan bo‘lib, ikkinchisida faqat raqs bop cholg‘u kuylar va qo‘shiqlarga, uchinchisida esa maxsus tinglov uchun mo‘ljallangan asarlar tashkil qilgan. Mazkur estrada jamoalari dasturidan o‘rin olgan asarlar deyarli rus va yevropa jaz namunalaridan iborat bo‘lgan.

O‘zbekiston davlat estrada orkestrining dastlabki ijro dasturi myuzik – xoll dasturlariga xos bo‘lib, unda xalq kuylari, qo‘shiq janrlari va raqslar, mohir sozandalarning nomerlari, shuningdek, o‘sha kezlarda shakllangan o‘zgacha san’at turi konferansyelarning chiqishlaridan iborat bo‘ladi. Bir qator mohir so‘z ustalari A.Qobulov va G‘ulomtoji Aglayevlar el – yurtga tanilib, katta sahnada o‘z o‘rnini va tomoshabinlarini topishadi. Shuni ham aytish lozimki, bu dasturlarda dastlabki o‘zbek kompozitorlarining mualliflik qo‘shiqlari ham ijro etiladi. Bu fikrlarimizni o‘sha davrda berilgan dastlabki konsert dasturlari ham tasdiqlaydi[5]. Bu paytda mualliflik qo‘shiqlari bobida yetuk asarlardan biri Botir Zokirov ijrosidagi Mutal Burxonovning “Maftun bo‘ldim” asari bo‘ladi. Uning o‘sha yillari ijro qilgan “Go‘zal qiz”, “Arab tangosi”, “Muhabbat”, “Jayron” kabi turli millat qo‘shiqlari bugungi kun uchun ham namunaviy bo‘lib turgan yangicha ohang tizimi milliy estrada qo‘shiqchiligidagi noyob topilmalardan bo‘ldi. Hozirda turli uslubiy yondoshish orqali ushbu qo‘shiq ijrosiga yosh estrada qo‘shiqchilari murojaat etayotganligi fikrimizni tasdiqlaydi.

Keyingi yillarda O‘zbekiston davlat estrada orkestrining repertuarida Botir Zokirov uchun bastalangan o‘zbek kompozitorlarining yangi – yangi estrada qo‘shiqlari o‘rin ola boshlaydi[6]. Bular orasida P.Rahimovning “Paxta haqida qo‘shiq”, S.Yudakovning “Lirik vals”, I.Akbarovning “Yor, kel”, “Ra‘no”, “Gazli”, “Qaydasan?”, “Seni eslayman” va boshqa ko‘shiqlarni keltirish mumkin. Ushbu qo‘shiqlarni xonanda yuksak mahorat bilan kuylab, tugal va teran, lirik va dramatik asar darajasiga ko‘tara oldi. Aynan shu qo‘shiqlar orkestr repertuarining gultojisi, o‘zbek milliy estradasining esa go‘zal namunalardan bo‘lib qoldi[7].

Estrada orkestri tarkibi damli cholg‘ular, torli cholg‘ular guruhi, okkordeon va tor, rubob, nay, chang, doira kabi milliy chog‘ulardan iborat bo‘lgan. Ushbu jamoa bilan ijodiy faoliyatini bog‘lagan va uni jahonga mashhur qilgan xassos xonanda, mohir aktyor, iqtidorli rassom, o‘zbek estrada qo‘shiqchiligining asoschisi sifatida tarixdan o‘rin olgan Botir Zokirov edi.

1957 – 1962 yillari A.N.Ostrovskiy nomidagi Toshkent davlat teatr va rassomlik institutining musiqali drama teatri aktyorligi bo‘limida, aktyorlik mahorati va qo‘shiqchilik san’atini puxta egallagan Botir Zokirov 1961 – 1970 yillari o‘zbek davlat estrada orkestrining badiiy rahbari sifatida faoliyat ko‘rsatadi. U serqirra va sermahsul ijodi davomida o‘zbek estrada qo‘shiqchiligi san’atida o‘ziga xos maktab yaratdi.

U insonlarni xayratga sola oladigan mayin ovozi, soʻz va ijrodagi uygʻunlik, hamohanglik, repertuarining keng qamrovi, sharq va gʻarb estrada qoʻshiqchilik sanʼatining noyob durdonalaridan foydalanishi, fransuz, hind, eron, misr, tojik, ozarbayjon, suriya va turk xalqlari merosidan unumli foydalanishi, ijrodagi betakrorlik, goʻzal va taʼsirchanlik bilan tinglovchilar qalbidan mustahkam oʻrin egalladi[8]. Botir Zokirov ijrosidagi “Orzularim mashʼali” (Farid Al-Ashrafiy, Misr Arab Respublikasi), “Goʻzal qiz” (Rahbaliy, Livan), “Dil orzusi” (Chaudxuriy, Hindiston) “Mara bebus” (Eron xalq qoʻshigʻi), “Oʻlgʻunimcha yigʻlayman” (Fatxulla Sulayman, Suriya) kabi turli millat va xalqlarning tinglovchilarga koʻtarinki kayfiyat, estetik zavq hadya etish bilan birga, qoʻshiq muxlislarining maʼnaviy dunyosini boyitdi[9].

Oʻzga xalq udumlari, urf – odati, qoʻshiq ijrochilik maktabi, qoʻshiq xarakteri va uning yukini his etish, eron, hind, arab, ijrochilarining ijodini, kuylash yoʻlini, uslubini takrorlamasdan, ularga taqlid qilmasdan oʻz talqini, oʻz tahlili va ovozi, ifoda vositasiga ega boʻlishni hamma ham eplay olmaydi. Oʻzgalar madaniyati, sanʼat sirlari, ijro yoʻllari usullarini egallash isteʼdodli sanʼatkorlarga, qoʻshiqchilik sanʼatida oʻz dastxati va ijod yoʻlini kashf etgan tinimsiz izlanishlar olib borishga qodir sanʼatkorlarga nasif qiladi xolos.

Maʼlumki, oʻtgan asrning elliginchi yillarida oʻzbek yoshlari orasida hind va sharq xalqlarining sevgi - muhabbat mavzusidagi qoʻshiqlariga va shoʻx, jozibador raqslarga boy hind kinofilmlariga boʻlgan qiziqish, ixlosmanlik, ishqivozlik katta boʻlgan. Bu jarayon Botir Zokirov ijodiga, uning qoʻshiqchilik faoliyati va repertuariga ham sezilarli taʼsir koʻrsatadi. Botir Zokirov ijrosidagi hind qoʻshiqlari samimiyligi, mayus va yoqimlilik, ohangraboligi bilan oʻzbek tinglovchilari, hind qoʻshiqlari muxlislarining qalbidan joy oladi. Botir Zokirov singlisi Luiza Zokirova bilan kuylagan, dilga yaqin, muhabbat mavzusidagi dueti televideniye ekrani va radio toʻlqinlarida tez – tez yangrab, tinglovchilar oʻrtasida tildan – tilga oʻtib ommalashib qoladi. Botir Zokirovning oʻsha davrda kuylagan qoʻshiqlari oʻzning sehri, soʻz, musiqa va ijrodagi uygʻunligi, ovozining ohangining temperametliligi, ijro imkoniyatlarining keng qamrovliligi bilan boshqa sanʼatkorlardan ajralib turadi. Shu bois uning sanʼatiga borgan sari qiziqish ortib boradi.

Botir Zokirovning oʻzbek davlat estrada orkestriga rahbarlik qilishi oʻzbek estrada qoʻshiqchiligining yangi – yangi mazmun bilan

boyishiga zamin yaratdi. Botir Zokirovning ovoz imkoniyatlari, ijrochilik yoʻllari, repertuarining tabiati, lirik va dramatik qoʻshiqlarni mahorat bilan ijro etishni va ijro madaniyatini inobatga olgan tajribali bastakorlarlardan Mutal Burxonov, Ikrom Akbarov, Sayfi Jalil va boshqa bastakorlar estrada orkestri jamoasi va uning badiiy rahbari, yosh xonanda bilan ijodiy hamkorlikni yoʻlga qoʻyadi. Qayerda bastakor, shoir va sozandalarning chinakam ijodiy hamkorligi, badiiy – estetik olamida mushtaraklik sezilsagina yangi qoʻshiq, yangi badiiyat goʻzalligi maydonga keladi. Botir Zokirov ijodidagi sara qoʻshiqlar ana shunday hamkorlik natijasida dunyoga keldi.

Mutal Burxonning Botir Zokirov ijrosidagi “Maftun boʻldim”, Ikrom Akbarovning “Raʼno”, “Gazli”, Sayfi Jalilning “Majnun monologi” qoʻshiqlari oʻtgan asrning oltmishinchi yillarida yaratilib, hozirda ham oʻz mavqeyini yoʻqotmay kelmoqda. Bu esa xonandaning qoʻshiq uchun mazmunan puxta va jozibali sheʼr topa olganligidan, soʻzning har bir misrasiga yurakdan mehr bogʻlab, ohanglar orqali tinglovchi qalbiga yetkazib bera olganligidan dalolat beradi[10].

Estrada qoʻshiqchilari tomonidan tayyorlangan konsert nomerlari, dasturlari yaxlit bir mavzuni, gʻoyani ochishga, uni tomoshabin va tinglovchiga yetkazishga xizmat qiladi. Ana shu konsert nomerlari va dasturlarini badiiy taʼsirchanligi, gʻoyaviy yukining ogʻirligi, koʻzlangan maqsadga erishishi, eshituvchining qalbini hayajonga sola olishi sanʼatkor mahorati va isteʼdodiga bogʻliq boʻladi. Ayniqsa estrada sanʼatida ijrochi qahramonning tashqi qiyofasi ham maʼlum maʼnoda ahamiyatli hisoblanadi. Botir Zokirov nomerlari, qoʻshiqlari qahramonlarining tashqi qiyofasi, undagi yuksak madaniyat, nozik did tomoshabinlarni beixtiyor oʻziga rom qila oladigan joziba, samimiylilik, xis – tuygʻular boyligi, qahramoni qiyofasiga kira bilish, sahnada oʻzini tutishi bilan koʻpgina sanʼatkorlarga ibrat namunasi boʻlib keldi.

Botir Zokirov ijrosidagi har bir nomer, har bir qoʻshiq qahramonining ichki va tashqi qiyofasi, asar mavzusi va mazmuni, musiqa xarakteri, janri, gʻoyaviy yuk tahlili, millat anʼanalari, folklorlar tahlilining mahsuli sifatida tomoshabinlar eʼtiboriga havola qilingan. Botir Zokirov sanʼatining taʼsirchanlik kuchi, jozibasi, qalbgaga yaqinligi, soʻz, musiqa va ijroning uygʻun holda aks etishida edi. Bu esa uning professionallik darajasining yuksakligidan dalolat beradi.

Botir Zokirov oʻzbek estrada qoʻshiqchilik sanʼatiga oʻz ovozi, oʻz qoʻshigʻi, oʻz dardi va usuli bilan kirib keldi. U koʻpgina qoʻshiqlarining musiqasini oʻzi bastaladi. Shu bilan birga,

masihur Fransuz bastakori Enriko Massis hamda sharq xalqlarining bir qancha bastakorlari Botir Zokirov bilan ijodiy hamkorlik qildilar. U o'zining betakror qo'shiqlari bilan Parijda "Olimpiya" konsert zalida konsert berganida fransuz qo'shiq ixlosmandlarini qoyil qoldiradi. Masihur ingliz xonandasi Tom Jons Botir Zokirov konsertini tomosha qilib, - "Bu sochlari qora va jingalak o'zbek xonandasidan ko'p narsani o'rganish mumkin ekan" [11], degan so'zlarni aytadi. Taniqli san'at arbobi, fransuz impressionisti Artur Xeller o'sha yilari Botir Zokirov bilan bo'lib o'tgan suhbatda shunday so'zlarni aytadi: Sizning parvozingiz yuksak, siz estrada san'ati uchun muhim hodisasiz. Sahnada chinakam hayot yaratasiz. Siz jahon estrada san'atiga toza havo olib kirdingiz"[12] deya e'tirofli so'zlarni bildiradi. Bu esa xonandaning san'atiga, shu bilan birga u boyitgan, professionallik darajasiga ko'targan, xalqimizning ma'naviy boyligiga aylanagan o'zbek estrada qo'shiqchilik san'atining chet ellarda ham tan olinishi va unga berilgan yuksak baho edi.

1960 – 1970 yillarda Botir Zokirov bilan yonma – yon Yunus To'rayev, Ilyos Mallayev, Staxan Rahimov, Luiza Zokirova, Bahrom Mavlonov, Ra'no Sharipova, Muhabbat Shamayeva kabi iste'dodli xonandalar ham samarali ijod qilib, estrada san'ati ravnaqiga munosib hissa qo'shishdi.

Ularning har biri o'ziga xos ovozi, ijro mahorati, individual qobiliyati, betakror musiqiy va ijrochilik bezaklari bilan alohida ahamiyat kasb etib, 60 – 70 yillar estrada san'atiga zamonaviy mavzu, yangicha talqin olib kirishdi. Bu insonlarning ma'naviy va ruhiy dunyosi, ichki kechinmalari hamda o'lmas qadriyatlarimizning ma'lum darajada ifoda etilishidan darak edi.

XULOSA. Shu bilan birga, bu davrda o'zbek milliy qo'shiqchiligida og'izaki nutq ohangiga tayanib ijod qilish usuli keng tarqala boshlandi. Og'izaki ohangiga xos bo'lgan o'zaro muammolardagi fikr bayoni, muloqot va dialoglar, minbarona notiqliq, she'r va hikoyalarni, doston va romanlarni o'qishdagi ovoz to'lqinlari singari vositalar bastakor va xonandalar ijodida ham o'z ifodasini topdi.

Ko'pgina iste'dodlar qatori Muhabbat Shamayevaning sermahsul ijodi xalqchilligi, yorqinligi, samimiyligi va badiiy yaxlitligi bilan alohida e'tiborli bo'ldi. Uning "Ko'chalar", "Gul diyorum", "Novdalarni bezab g'unchalar" kabi ko'plab qo'shiqlari tez ommalashib ketganligining sababi ham shunda edi. Hatto xonandaning qo'shiqlari bir necha kinofilmlarning g'oyaviy

maqсадini ochilishida xizmat qilib, tomoshabinlar qalbidan mustahkam joy egalladi.

Botir Zokirov maktabini o'tagan, estrada san'atining taraqqiy topishiga o'z hissasini qo'shgan o'nlab xonandalar qatori O'zbekiston xalq artisti Farrux Zokirov va "Yalla" vokal cholg'u ansamlining ijodi ushbu san'at rivojiga sezilarli va samarali ta'sir ko'rsatdi. Guruh tomonidan ijro etilgan "Omonyor", "Toshkent", "Choyxonachi", "Qilpillama" kabi qo'shiqlar xalq ijodini yangi qirralar bilan boyitdi. Ular o'zbek estradasiga ko'p ovozli uslubda kuylash va jo'r bo'lish san'at va madaniyatini olib kirishdi. Unda estrada cholg'u – asboblari qatorida milliy cholg'ulardan foydalanilgani bilan e'tiborli bo'ldi.

Ayni shu jarayonlarda o'zbek estrada san'atiga O'zbekiston xalq artistlari G'ulomon Yoqubov, Mansur Toshmatov, Nasiba Abdullayevalar ham shahdam qadamlar bilan kirib keldi. Nasiba Abdullayevaning "Barigal", "Samarqand", "Yoqasiz jonim", "Tushingizga kirgan malak", "Kelasiz" kabi qo'shiqlari o'ziga xosligi, ma'nodorligi, nafis ichki kechinmalari, milliy koloritga boyligi, so'z va musiqaning uyg'unligi bilan ajralib turadi. Shu bois, ushbu qo'shiqlarni bugungi kunda ham sevib tinglab kelinmoqda.

1980 – 1990 yilga kelib estrada qo'shiqchiligi maydoni yanada kengaydi. Unda vatanparvarlik, lirik mavzudagi asarlar, davrni, muhabbatni, do'stlikni, ma'naviy qadriyatlarni kuylash, badiiy an'analarga yangicha yondashishlar bilan bir qatorda, ko'p ovozli ijro, ansambllarda raqqosalarning ishtiroki, shou tomoshalari muhim o'rin tuta boshladi. Bundan tashqari estrada qo'shiqchiligida turli cholg'u asboblardan foydalanishga ixtiyor va ehtiyoj kuchaydi, katta instrumental guruhlar shakllandi. Bu jarayonga yangi avlod vakillari qadam qo'ydi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Kumush Razzoqova, K.Qayumov va "Sado" shu bilan birga "Navo", "Qars" guruhlarini tashkil etilib, turli yo'nalishdagi ijod namunalari tinglovchilarga havola etishdi.

Shu davrda estrada olamiga yana bir haqiqiy iste'dod egasi, dardli ovoz sohibasi Yulduz Usmonova ham o'zining diltortar kuylari, shirali ovozi, mazmunan baquvvat qo'shiqlari bilan xalqning ko'nglidan joy oldi. Uning har bir qo'shig'i rang – barangligi va xalqchilligi bilan o'zgacha tarovat kasb etdi. Xonandaning ijodida bir xillikni, shunchaki, yengil – yelpi qo'shiqlarni kuylash alomatlarini sezilmaydi. Balki butun borlig'ini, qalb qo'rini ohanglar zamiriga mujassam etishga intiladi. Shu sababli uning qo'shiqlari tezda xalq orasida ommalashib bordi.

Yulduz Usmonova bilan bir qatorda Nuriddin Haydarov, Muhridin Xoliqov, Oxunjon Madaliyev, Azim Mullaxonov, G'iyos Boytoyev, Ravshan Nomozov, Mavluda Asalxo'jayeva, Salohiddin Azizboyevlar ham samarali ijod qilishdi. Ayniqsa, Nuriddin Haydarov, Muhridin Xoliqov, Oxunjon Madaliyev va G'iyos Boytoyevlar san'atida milliy kolorit yetakchilik qildi. Ularning betakror ovozlari, chuqur talqini va samimiyligi alohida e'tiborga molik bo'ldi.

Umuman olganda XX asrning boshlarida ijtimoiy – siyosiy vaziyatlar ta'sirida shakllana boshlagan o'zbek estrada qo'shiqchiligini bir tomondan an'anaviy janrlar – lapar, yalla va mehnatni madh etishni sahnaga olib chiqqani orqali boyitilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa xalq musiqa janrlarini estrada talablari asosida usluban qayta ishlanishi natijasida yaratilgan qo'shiqlar xalqning qalbidan mustahkam joy oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umarov M.U. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. T.: Yangi asr avlodi. 2009.
2. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 2000.
3. Ibrohimov.O. O'zbek xalq musiqasi. 1 jild. – T.: Ibn Sino nashriyoti. 1994.
4. Qodirov M.X. O'zbek xalq tomosha san'ati. – T.: O'qituvchi. 1981.
5. Hamidova SH.T. Estrada janrlari. T.: O'zDSI. 2009.
6. Bekov O., Mullajonov D. Milliy estrada san'ati. // O'zbekiston san'ati (1991- 2001 yillar). – T.: Sharq nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2001.
7. Ibrohimov O. O'zbek xalq musiqasi. 1 jild. – T.: Ibn Sino nashriyoti. 1994.
8. Meliyev S. Musiqa va ma'naviyat. // “O'zbeknavo”: ustozlar, yuduzlar, shogirdlar, T.: CHO'lpon nashriyoti. 2000.
9. Jabborov A. Musiqiy drama va komediya janrlari O'zbekiston kompazitorlarining ijodiyotida. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1999.
10. Rahimov A. “O'rganaylik va o'rgataylik”, O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi, 2005 yil, 1 – aprel 14 - son.
11. Rahimov A. “Milliy estrada qanday bo'lishi kerak?”, “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasi, 2002 yil, 16 - iyun soni.

REZYUME. Mazkur ilmiy ish estrada san'atining badiiy tizimida so'z, musiqa va ijro unsurlarining o'zaro uyg'unligi hamda ularning badiiy yaxlitlikdagi hamkorlik masalalarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda shoir, bastakor va xonanda ijodiy faoliyatining o'zaro aloqasi, ularning estrada asarining badiiy qiyofasini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Estrada janrining o'ziga xosligi shundan iboratki, unda so'zning mazmuniy teranligi, musiqaning ohangdorligi va ijroning ifodaviy kuchi bir-birini to'ldirib, auditoriyada emotsional ta'sir kuchini yuzaga keltiradi.

РЕЗЮМЕ. Данное исследование посвящено изучению вопросов взаимодействия слова, музыки и исполнительства в художественной системе эстрадного искусства. В работе анализируется взаимосвязь творческой деятельности поэта, композитора и исполнителя, а также их роль в формировании художественного облика эстрадного произведения. Особенность жанра эстрады заключается в том, что смысловая глубина слова, мелодичность музыки и выразительная сила исполнения взаимно дополняют друг друга, создавая сильный эмоциональный эффект у аудитории.

SUMMARY. This research is devoted to the study of the interaction between words, music, and performance within the artistic system of pop (estrada) art. The paper analyzes the interrelation between the creative activities of the poet, composer, and singer, as well as their roles in shaping the artistic image of a pop composition. The distinctiveness of the estrada genre lies in the way the semantic depth of lyrics, the melodiousness of music, and the expressive power of performance complement each other, producing a strong emotional impact on the audience.